

Date: 5th June-2025

ADURAU FİTRATNING “MUNOZARA” VA “HIND SAYYOHI”
ASARLARINING QIYOSIY TAHLILI

Boymurodova Nilufar Narzi qizi

Buxuro davlat universiteti filologiya fakulteti

6-1MAM22-guruh talabasi

Annotatsiya: maqolada ma’rifatli va ziyoli jadidlarimizdan Abdurauf Fitratning Istanbulda fors tilida yozilgan asarlari “Munozara” va “Hind sayyohi” asarlarining o’xshash va farqli jihatlarini tahlil qilib, o’sha davr muammolari, hozirgi kundagi ahamiyati va o’rni haqida so’z yuritamiz. Fitratning diniy qarashlarining evolyutsiyasi va asarning jadidchilik harakatidagi o’rni ham ko’rib chiqiladi. Tadqiqot natijalariga ko’ra, Fitrat an’anaviy diniy ta’limot bilan zamonaviy ilm-fanni uyg’unlashtirish tarafdori bo’lgan va diniy islohotlarni qo’llab-quvvatlagan.

Kalit so’zlar: Abdurauf Fitrat, "Munozara", jadidchilik, diniy islohotlar, islom, zamonaviy ta’lim, jadid adabiyoti, ijtimoiy islohotlar, madaniy islohot, tarbiya, axloq.

Abdurauf Fitrat o’zbek ma’rifatparvar adibi, din va jamoat arbob, jadidchilik harakati asoschilaridan biri. XX asr o’zbek adabiyotining mashhur vakili. U ko’pgina davlatlarda yurib, turli xil asarlar yozgan. 1909-1913 yillarda Turkiya dorilfununida tahsil oladi. Bu yillar mobaynida Fitrat qizg’in badiiy ijod bilan shug’ullanadi. Istanbulda Fitratning bir qator asarlari forsiy tilda bosib chiqiladi. Shulardan biri, 1909-yilda “Munozara”(Hindistonda bir farangi ila buxoroli bir mudarrisning jadid maktablari xususida qilg’on munozarasi) asari bosildi. Bu asar jadidchilik harakati rivoji yo’lidagi ilk nazariy asardir. Bu asarda tarixiy taraqqiyotning ikki pog’onasida turib qolgan din va dunyo, jamiyat va ma’rifat haqida ikki xil qarashga ega bo’lgan ikki kishining bahsi asosiga qurilgan edi. “Munozara” asari Buxoro amirligida ta’qiqlab qo’yilishiga qaramasdan, turli yo’llar bilan Buxoroga olib kelinib, keng tarqaladi. Dastlab “Munozara” asari 1911-yilda Hoji Muin Shukrulloh o’g’li tarjimasida “Turkiston viloyatining gazetasi” da, bosib chiqilgan, keyinchalik esa, 1913- yilda Behbudiy so’zboshisi bilan alohida kitob holda nashr qilingan. Dastlab, bu asar teatlarda ayrim qismlari tushirilgan holda sahnalashtiradi. Munozara asari Buxoro amirligi va Rossiya hukumati tomonida ta’qiq qilinishiga qaramasdan butun Turkiston o’lkasida, sharq va g’arb mamlakatlarida ham keng tarqalgan va mashhur bo’lgan. Xalqning ko’zi ochilishida muhim rol o’ynaydi.[1]

Fitrat diniy masalalarga yondashuvda murosasoz va islohotchilik pozitsiyasini egallagan. U bir tomondan an’anaviy diniy ta’limot va ulamolarni tanqid qilsa, boshqa tomondan islom dinining asl mohiyatini tushuntirishga, uni zamonaviy talablar asosida talqin etishga harakat qilgan. Fitratning diniy islohotlar g’oyalari jadidchilik harakatining umumiy yo’nalishiga mos keladi. Masalan, Mahmudxo’ja Behbudiy ham o’z asarlarida diniy ta’limotni isloh qilish, uni zamonaviy bilimlar bilan uyg’unlashtirish g’oyasini ilgari surgan. Biroq Fitrat "Munozara"da bu g’oyalarni yanada keskinroq va ochiqroq ifodalagan. Asarda diniy ta’limot va zamonaviy bilimlar o’rtasidagi munosabat masalasi



Date: 5th June-2025

markaziy o‘rin egallaydi. Fitrat farangi tilidan so‘zlab, faqat diniy ilmlar bilan cheklanish musulmon jamiyatini tanazzulga olib kelishini ta’kidlaydi. Bu fikrlar o‘sha davr Turkiston jamiyatidagi real vaziyatni aks ettiradi. Chunki an’anaviy madrasalarda asosan diniy bilimlar o‘qitilgan, dunyoviy fanlar e’tibordan chetda qolgan edi. Fitratning diniy islohotlar g‘oyalari ham e’tiborga loyiq. U islom dinining ilmfanga zid emasligini, aksincha ilm olishni targ‘ib qilishini ta’kidlaydi. Bu orqali Fitrat konservativ ulamolarning "zamonaviy bilimlar islomga zid" degan da’volarini rad etadi. "Munozara" asari Fitratning diniy qarashlarida muhim bosqich bo‘lgan. Unda muallif an’anaviy diniy ta’limotni tanqid qilsa-da, islom diniga sodiq qoladi va uni zamonaviy talqin etishga intiladi. Asarda diniy ta’limot va zamonaviy bilimlar o‘rtasidagi munosabat masalasi markaziy o‘rin egallaydi. Fitrat faqat diniy ilmlar bilan cheklanish musulmon jamiyatini tanazzulga olib kelishini ta’kidlagan. Fitrat diniy islohotlar g‘oyasini ilgari surgan, islom dinining ilm-fanga zid emasligini, aksincha ilm olishni targ‘ib qilishini ta’kidlagan. U an’anaviy diniy qarashlar bilan zamonaviy g‘oyalarni uyg‘unlashtirish orqali musulmon jamiyatini isloh qilishga intilgan. [2]

Jadidchilik milliy ma’rifatparvarlik harakatining tarafdori Abdurauf Fitratning “Hind sayyohi qissasi” asari tojik tilida yozilgan bo‘lib, ilk bor 1912-yili Istanbulda chop etilgan. O‘zbek tiliga esa ilk bor Hasan Qudratullayev tarjima qilgan va u 1991-yili “Sharq yulduzi” jurnalida bosilgan. Asarda muallif Buxoroga tashrif buyurgan hind sayyohining hikoyasi orqali o‘sha davrdagi Buxoro xonligidagi bir qancha muammolarni fosh etadi, tanqid qiladi va ularga yechim izlaydi. Xususan, Buxoro shahri darvozasi yopilgandan so‘ng armanilar va yahudiylar, hatto bir armanining itiga ochilgan darvoza oddiy musulmonlar uchun ochilmaydi; hind sayyohi shaharda aravakashlar, foytunkashlarning o‘zaro dahanaki urushiga duch keladi. Hech kim ularga e’tibor qilmaydi; sayyoh Buxoro hovuzlarining ichimlik suvi sifatida foydalanib bo‘lmashligini isbotlab beradi; sayyoh Bahouddin Naqshband mozoridagi xurofotlar, shirkka olib boruvchi xatti-harakatlardan ranjiydi; sayyohning shahar markazida Lut qavmi razolatini takrorlayotgan erkaklardan ko‘ngli behuzur bo‘ladi; Buxorodagi ta’lim sistemasiga ajratilgan vaqf mablag‘lari keragidan ortiq, ilm olish uchun madrasa, kutubxonalar, maktablar yetarli-yu, lekin ilmlilar yo‘qligidan hayratga tushadi. To‘rt yuz olimga beshik bo‘lgan Buxoroda loaqal Qur’oni karimning bir oyatini tuzuk-quruq tafsir eta oladigan olim topilmaydi. Vaqf mablag‘lari esa mansabdorlar jig‘ildoniga tushyotgan edi; Sarbozlik (askarlik) muddati Buxoroda chegaralanmagan. Sarbozlik jinoyatga jazo turidir. Kim jinoyat qilsa, uni umrbod sarbozlikka mahkum qiladilar; butun boshli Buxoroyi sharifdan bironta ham oliy ma’lumotli tabib topilmaydi. Tabiblar esa ikki yuz yil oldin qo‘llangan usullardan foydalanadi. Rus tabibi faoliyatini esa kofir deya bir pulga ilmaydilar. Ba’zi tumanlarida shifokor kimligini ham bilishmaydi; shaharda sanitariya-gigiyenaga amal qilinmaydi, aslida esa islom poklikka chaqiradi; Hind sayyohi Buxoro muzofotiga tegishli Qarshi shahriga sayohat qiladi. U yerdagi to‘quvchilik hunariga yangi texnologiya kiritish lozimligini ta’kidlaydi. aks holda bu hunardan kelajakka hech “Ilm-fan muammolari tadqiqotchilar talqinida” mavzusidagi respublika ilmiy konferensiyasi narsa qolmasligidan qayg‘uradi; Buxoro dehqonchiligi ham o‘ta qoloq. Haligacha Odam Ato zamonidan qolgan



Date: 5th June-2025

qurollar ila dehqonchilik yuritishadi; Buxoro qozilarining ham qilmagan makrlari, shariatni pesh qilib, omi xalqning pulini jig'ildonlariga urayotganliklaridan sayyoh hayratga tushadi. Ezilgan xalq qoziga to'laydigan pulni qayerdan oladi? Sudxo'rdan..; Buxorodagi tijoratida ham bir qancha muammolarni sanab bergan sayyoh, qanday qilib, muvaffaqiyatga erishish yo'llarini ham aytib beradi. Yuqorida Hind sayyohi tomonidan tanqid qilingan jihatlar ichida ta'lim-tarbiya muammosi alohida ahamiyat kasb etadi, chunki asarning boshida Fitrat Buxoro ahlini dastlab uch toifaga ajratadi. Bu uch toifaning dastlabkisi esa "ulamo"lar toifasi edi. Keyingi "umaro" (hukmdorlar) va "fuqaro" toifalaridan "ulamo", ya'ni olimlar (ziyolilar) toifasini oldinroq keltirishi jamiyatda bilimli insonlarni o'rni muhim ekaniga ishora qiladi go'yo. "Ma'lumki, Buxoro qadimdan o'ta dono va zukko fuzalo ahlini tarbiyalab, voyaga yetkazgan.[3] Har kuni bir Abu Ali, Farobiy va boshqalarni jahonga hadiya etib, shu tariqa o'zining sharaflari dovruq'ini dunyo xalqlarining quloqlariga zirak qilib taqqan". Shu kabi maqtoqli jumlar bilan boshlangan olimlar ta'rifining davomi oxirgi ikki yuz yil ichida jaholatga yuz tutgan ilm ahli haqidagi achinishga va tanqidga to'la jumlar bilan yakunlanadi. Har bir jamiyat tanazzulga yuz tutishida eng asosiy muammo ilmsizlik, jaholat ekani, aslida Buxorodagi sanalgan har bir kamchilik sababi ilmsizlik ekani muallif anglatmoqchi bo'lgan muddao-maqsaddir. Fitrat hind sayyohi orqali o'z tilidan ham moddiy, ham ma'naviy qashshoqlashib qolgan jamiyat holidan xabar berar ekan, ushbu xulosani asar qahramoni tilidan so'zlaydi: "Ilohiy qonun budir: modomiki biron bir qavm o'zining ishlarini Olloh farmoyishi asosida olib bormas ekan, o'zining shaxsiy hayotini sharaf, saodat va farog'at, buyuklik bilan hamqadam bilib o'tkazmas ekan, tinchlik va osoyishtalik niyatlarini yo'qqa chiqarishga intilib, kibr va g'urur vodiysiga qadam qo'yar ekan, chin haq va adolat yo'lidan chiqar ekan, o'sha zahotiyoq shon-sharaflari yer bilan yakson bo'lib, osoyishtalıkları zahmatga, buyukliklari esa xorlikka aylanishi muqarrardir! Har bir xalq o'zini ilmsizlik deb atalmish girdobdan "Ilm-fan muammolari tadqiqotchilar talqinida" mavzusidagi respublika ilmiy konferensiyasi qutqarmas ekan, u girdob butun xalqni yo'q qilishi mumkin. Ziyoma'rifat esa yuksalishning yagona yo'lidir.[4]

Bu ikki asar ma'lum ma'noda mavzudosh bo'lib, ularda asrimiz boshlarida yuz bergan hodisalar bir millatparvar fozil shaxs tomonidan tahlil etiladi va shu boradagi fikrlar bir-birini to'ldiradi. Muallif dastlabki asarida ko'proq ma'rifatchi va islom islohotchisi sifatida ko'ringan bo'lsa, "Hind sayyohi" qissasining mavzu doirasi ham, unda bayon qilingan voqealarning ko'lami ham ancha keng.[5]

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.web-journal.ru <http://web-journal.ru>
2. <https://zenodo.org> Abdurauf Fitratnig "Munozara" asarida diniy masalalar
- 3.Abdurauf Fitrat.Hind sayyohi qissasi. «Шарқ юлдузи» jurnali, 1991yil, 8-son www.ziyouz.com kutubxonasi. 43 bet.
- 4.<https://talqinvatadqiqotlar.uz>
- 5.H.Boltaboyev.Abdurauf Fitrat YOSHLAR NASHRIYOTI UYI Toshkent-2022.42-43b.

